ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

Folklorshunoslik

Abdumurod Tilavov

O‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi tadqiqotlar 147

Hulkar Aliqulova

Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tipologik tahlili 160

Ilhom Jumayev

“Qutadg‘u bilig” dostonida Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlarining folklor motivlariga xos talqini 171

Norkulova Shaxnoza

“Boburnoma”da xalq og’zaki ijodi namunalari badiiy talqini 181

Dilorom To‘rayeva

Usmon Azim ijodida folklor namunalari va xalqona ohang **.....** 189

Mahkamova Dilafruz

“Bilga Xoqon” obrazining zamonaviy nasr va nazmda ifodalanishi .. 198

Rajabbayeva Ozoda

O‘zbek mifologiyasida “Irq bitik”ning qimmati 207

Abduraximova Nazokat

O‘zbek va turk xalqlarida nikoy to‘yi marosimi 216

Turobova Mohinur

O‘zbek laparlari va turk karshilikli manilari tadqiqi 224

“BILGA XOQON” OBRAZINING ZAMONAVIY NASR VA NAZMDA IFODALANISHI

Dilafruz Mahkamova[1]

Abstrakt

Maqolada Bilga Xoqon obrazi turkiy xalqlarning tarixiy xotirasi va adabiy tafakkurida qanday talqin etilganiga e’tibor qaratiladi. Xususan, qadimgi bitiktoshlarda ifodalangan tarixiy shaxsning obrazini zamonaviy nasr va nazmda qayta jonlantirish jarayoni tahlil qilinadi. O‘zbek adabiyotidagi Isajon Sultonning *“Bilga Xoqon”* romani hamda zamonaviy she’riyatda uchraydigan obrazlar misolida tarixiy qahramonning badiiy talqini yoritiladi. Shu orqali o‘tmish va bugun o‘rtasidagi ruhiy–ideologik bog‘lanish ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Bilga Xoqon, Kultegin, To‘nyuquq, turkiy bitiktoshlar, Isajon Sulton, zamonaviy o‘zbek adabiyoti, tarixiy obraz, nasr, nazm, badiiy talqin.

Kirish

Turkiy xalqlarning tarixiy xotirasi va adabiy merosida qadimiy bitiktoshlar alohida o‘rin tutadi. Ularda xalqning dunyoqarashi, siyosiy kurashlari, qadriyatlari hamda buyuk shaxslar siymosi badiiy va tarixiy uyg‘unlikda ifodalangan. Shulardan biri — VIII asrda yashab, Ikkinchi Turk xoqonligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan Bilga Xoqondir. Uning nomi Kultegin va To‘nyuquq bilan bir qatorda turkiy dunyoning ramziy timsollaridan biri sifatida yodga olinadi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida bu obraz tarixiy romanlar, she’riy asarlar va badiiy publitsistikada qayta jonlantirilmoqda. Xususan, Isajon Sultonning *“Bilga Xoqon”* romanida tarixiy shaxsning siyosiy salohiyati va ruhiy olami epik tasvir vositalari orqali ochib beriladi. Shu bilan birga, she’riy asarlarda Bilga Xoqon, Kultegin va To‘nyuquq kabi qahramonlar “shon–shuhrat daraxtlari” tarzida ideallashtirilib,

[1]*Mahkamova Dilafruz* - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilafruz-mahkamova@mail.ru
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0001-7750-9476
Iqtibos uchun: *Mahkamova D. Sh.* 2025. “*Bilga Xoqon obrazining zamonaviy nasr va nazmda ifodalanishi*”. O‘zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Dialektologiya 2. 198-114. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/DSDH8392

turkiy birlik va mustaqillik g‘oyalari ifodasiga aylanmoqda.

Maqolaning maqsadi – Bilga Xoqon obrazining zamonaviy nasr va nazmda qay tarzda talqin etilayotganini ko‘rsatish, tarixiy xotiraning adabiyotda davomiyligini tahlil qilishdir.

Asosiy qism

Turk xoqonligining asosiy maqsadi Tabg‘achlar hukmronligidan xalos bo‘lish, mustaqillikni ta’minlash va barqaror davlat qurishga erishish edi. Bunday davlatni shakllantirish uchun avvalo xalqning tafakkurini ozod qilish, sog‘lom dunyoqarashni tiklash zarur edi. Chunki uzoq davom etgan siyosiy va madaniy qaramlik turkiy xalqlarning ma’naviy hayotiga jiddiy putur yetkazgan, milliy o‘zlikni anglash jarayonini zaiflashtirgan edi. Shu sharoitda Bilga Xoqonning faoliyati muhim burilish yasadi. U xalq ongini yangilash, milliy o‘zlikni tiklash va davlatning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy hayotini izga solish orqali yuksalishga asos yaratdi. Manbalarda qayd etilishicha, Bilga Xoqon “Tangri yorlaqaganligi, iste’dod va baxt egasi bo‘lganligi tufayli” turkiy qavmlar boshlig‘i sifatida tan olindi. U zaiflashgan jamiyatni qayta tikladi: kambag‘allarni oyoqqa turg‘izdi, moddiy farovonlikni ta’minladi va xalq sonini ko‘paytirishga hissa qo‘shdi. Natijada Bilga Xoqon davrida turkiy xalqlarning siyosiy birlik va ma’naviy uyg‘onishi kuchaydi, ularning mustaqil davlat qurish orzusi muayyan tarixiy haqiqatga aylandi. U tarixiy manbalarda turli yo‘llar bilan tasvirlanganidek, xalq ongini yangilash, milliy o‘zlikni tiklash va davlat hayotining barcha jabhalarida tartib o‘rnatish orqali ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni mustahkamladi. Masalan, Bilga Xoqon bitiktoshida xoqon quyidagicha yozdirgan:

“**T’ŊR’IT’G : T’ŊR’ID’Ä : BOLMŠ : T’ÜR’K : B’IL’GÄ : QγN : BUÖD’KÄ : OLRTM**”
(ya’ni “Tangri yordami bilan turk Bilga xoqon bo‘ldi”)

Bitiktosh matnlaridan ko‘rinishicha, xoqon “el erkinligi”, “ulus farovonligi” g‘oyalarini o‘z so‘zida oshkora bayon qilgan, xalq bilan mustahkam aloqaga urg‘u bergan.

Bilga Xoqon bitiktoshi vaqt o‘tishi, tabiiy ofatlar va inson aralashuvi tufayli ko‘p zarar ko‘rgan bo‘lsa-da, unda bayon etilgan voqealar mazmunan muhim va izchil ma’lumotlarni o‘zida saqlab qolgan. Bitiktoshda asosan Bilga Xoqonning taxtga chiqishi, turli qabilalarga qarshi yurishlari va ularni bo‘ysundirishi haqida so‘z yuritiladi. Masalan, basmil va idiqut qabilalari dastlab Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan, biroq ularning siyosiy itoatsizligi va “karvon yubormaganligi” sababli Bilga Xoqon ularga qarshi lashkar tortib,

ularni yana o‘z tasarrufiga qaytargan. Ushbu lavhalarning qimmati shundaki, ular tarixiy voqealarni birlamchi manbaning o‘zidan – Bilga Xoqonning shaxsiy nuqtayi nazari orqali yoritadi. Shu bois mazkur bitiktoshni Kul Tegin yodgorligidan farqli o‘laroq qahramonlik eposi emas, balki memuar xarakteridagi manba sifatida ham talqin qilish mumkin.

Adib Isajon Sulton ana shu qadimiy bitiklarda aks etgan tarixiy haqiqatlarni badiiy talqin etib, “Bilga Xoqon” romanini yaratadi. Asarda ajdodlarimizning ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy qiyofasini qayta tiklashga intilish seziladi.[“Bilga Xoqon” romani, 2023:16] Muallif bitiktosh manbalarini roman matniga o‘rinli singdirib, ularni badiiy-estetik talqin darajasiga olib chiqqan. Romanning dastlabki sahifalarida uchraydigan Ishbara Yamtar va Bulut kabi obrazlar turkiy xalqlarga xos xarakter belgilarini mujassam etib, xalq ruhiyatini yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Roman umumiy jihatdan tarixiylik tamoyiliga tayanib yozilgan bo‘lib, unda Bilga Xoqon obrazi asosiy qahramon darajasida gavdalanadi. Bu obraz nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki milliy tafakkur, ozodlik va davlatparvarlik ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Shu jihatdan “Bilga Xoqon” romani o‘zbek adabiyotida tarixiy shaxsiyatni badiiy obraz darajasiga ko‘tarish yo‘lidagi samarali urinish sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Isajon Sultonning *“Bilga Xoqon”* romanida shunday tasvir uchraydi:

“Ko‘gman tog‘lari etagida qishning keskin izg‘irini esar edi.
Qor qoplagan yaylovda xalqning uy–joylari tarqoq holda ko‘rinardi.
Yonma–yon ikki qo‘nalg‘aning kigiz to‘sqichlari ochilib, avval bir erkak, keyin yana bir erkak tashqariga chiqdi.
Ularning nigohlari sovuq shamolda ham yonib turar, ammo ko‘ngillarida xalqning taqdiri haqida og‘ir o‘ylar g‘ijimlanib yotar edi.”

Mazkur parcha o‘zining epik tasvir kuchi bilan ajralib turadi. Muallif peyzaj orqali tarixiy voqealar fonini yaratadi: qahraton qish, tarqoq qo‘nalg‘alar va izg‘irin shamol – bularning barchasi turkiy xalqlarning o‘sha davrdagi og‘ir ahvolini ramziy ifodalashga xizmat qiladi. Ikki erkakning sahnaga kirib kelishi dramatik vaziyatni kuchaytiradi: ularning tashqi ko‘rinishi emas, balki ichki dunyosi – xalq taqdiri haqidagi tashvishlari muhim sanaladi. Bu uslub orqali Isajon Sulton qahramonlarning shaxsiy kechinmalarini umumxalq dardi bilan birlashtiradi, shunday qilib, badiiy obraz milliy ruhni ifodalovchi ramzga aylanadi. Shuningdek, parcha realistik va ramziy qatlamlarning uyg‘unligini namoyon etadi: tabiat tasviri – qahraton qish, tarqoq qo‘nalg‘alar – nafaqat sahnaning bezagi, balki xalqning

ma’naviy va siyosiy ahvolini ifodalovchi badiiy vositadir. Bu jihatlar romanning asosiy g‘oyasi – turkiy xalqning birlashishi, mustaqillikka intilishi – bilan bevosita bog‘liqdir. Demak, Isajon Sulton bu kabi tasvirlar orqali Bilga Xoqon shaxsining buyuk tarixiy missiyasini badiiy shaklda tayyorlaydi: xalq dardini his etuvchi, uning orzu-intilishlarini o‘z qalbidan o‘tkazuvchi rahbar obrazi yaratiladi.

Quyidagi jumlalar ham diqqatga sazovor:

“Turkiy el, quloq sol!
Osmonimiz ko‘k, yerimiz qattiq, ammo yuraklarimiz bo‘sh bo‘lsa, dushman kelib bosadi.
Men – Bilga, sizning xoqoningiz, Tangri taqdir etgan yurtingizni asrash uchun chaqiraman.
Eslang: ota–bobolarimiz qilich bilan bu dashtni olgan. Endi bizning qo‘limizda uni asrab qolish burchi bor.
Kimning yuragi bor – yonimga kel!
Kimning qo‘li bor – qilich ushla!
Turkiy el tursa – Tangrining qudrati baland bo‘lur!”[“Bilga Xoqon” romani, 2023. 102]

Isajon Sultonning “*Bilga Xoqon”* romanida xalqni uyg‘otish va birlashtirish motivi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi nutq parchasida Xoqon xalqni buyuk sinov oldida safarbar etmoqda. Adabiy jihatdan bu sahna yozuvchining tarixiy ruhni badiiy vositalar orqali qayta tiklash mahoratini namoyon etadi. Nutqda qadimgi turkiy bitiklarning ohangi eshitiladi. Masalan, *“Osmonimiz ko‘k, yerimiz qattiq”* misrasi O‘rxun bitiktoshlaridagi kosmogonik tasvirlar bilan mushtarak. Bu orqali muallif Bilga Xoqonning so‘zlariga tarixiy ishonchlilik va ramziy chuqurlik baxsh etadi. Yozuvchi xalqni uyg‘otishda takror va parallel qurilish usullaridan keng foydalanadi: *“Kimning yuragi bor – yonimga kel! Kimning qo‘li bor – qilich ushla!”*. Bunday ritmik tuzilish xalqona da’vat ohangini kuchaytiradi, nutqqa epik pafos beradi. Shuningdek, bu usul Xoqonning so‘zlarini oddiy xalq ongiga singdirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Nutqda shaxs va xalq taqdiri uyg‘unlashgan. Xoqon o‘zini xalqning xizmatkori sifatida ko‘rsatadi: *“Men – Bilga, sizning xoqoningiz, Tangri taqdir etgan yurtingizni asrash uchun chaqiraman.”* Bu ibora hukmdorning hokimiyatini ilohiylashtirgan bo‘lsa-da, xalq bilan birdamligini ham ta’kidlaydi. Shu tariqa yozuvchi qahramon obrazida yetakchilik va xalqqa xizmatni bir butun qilib beradi. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan, bu sahna turkiy epik merosdagi qahramonlik ideologiyasini mujassamlashtiradi. Xoqonning nutqi shunchaki siyosiy da’vat emas, balki milliy ruhni ko‘taruvchi, tarixiy xotirani jonlanti-

ruvchi badiiy vositadir. Romandagi bu epizod o‘quvchini o‘z ildizlari va qadriyatlariga qaytishga undaydi, shu orqali asarning badiiy-estetik vazifasi yanada kuchayadi.

Zamonaviy nazmda Bilga Xoqon haqidagi she’rlar nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki qardosh xalqlarda ham yozildi. Turkiyalik shoir Yusuf Tunaning **“Turk Bilga Xoqon derki”** she’ri diqqatga sazovordir. [Tuna, Yusuf, 2014]

İnim Ötügen Türk bodunta aşar,
Atım Oguz üçüne yörümüş.
Uca Acun Öd tengri yaşar,
Kişi oglı kopölgeli törümüş.
Ünüm Ötüken Türk yurdunu aşar,
Adım Oğuz içine yürümüştür.
Koca dünyada zamanı Tanrı yaşar,
İnsan oğlu hep ölmek için türemiştir.
Yusuf Tuna

Tarjimasi:

Bilga Xoqon deydi

Inim, O‘tukan turk xalqiga oshar,
Ismim O‘g‘uz ichiga kirib borgan.
Ulug‘ jahon, vaqt bilan Tangri yashar,
Inson o‘g‘li – o‘lish uchun tug‘ilgan.

O‘tukan sadosi turk yurtin bosar,
Nomim O‘g‘uz eliga yetib borgan.
Katta dunyoda faqat Tangri yashar,
Inson farzandi – o‘lim uchun yaralgan.

Yusuf Tunaning “Bilge Kağan deydi” she’rida qadimgi turkiy epik ruh zamonaviy she’riy shaklda qayta yaratilgan. Asarda markaziy obraz sifatida Bilge Xoqon nutqi berilib, u orqali turkiy xalqning qadimiy ildizlari, kosmogonik qarashlari va hayot falsafasi ifodalanadi. She’rning birinchi bandida *“Ötügen”* timsoli tilga olinadi. O‘tukan qadimgi turkiylarning muqaddas yurt markazi bo‘lib, u turk elining barqarorligi va birligi ramzi hisoblanadi. *“Adım Oğuz içine yürümüştür”* satri esa butun turkiy xalqlarning ildizi va tarixi bilan bog‘liq O‘g‘uz ramzini eslatadi. Bu obrazlar she’rga epik kayfiyat beradi va tarixiy–mifologik qatlamlarni uyg‘unlashtiradi. Ikkinchi bandda esa falsafiy mazmun kuchayadi: *“Koca dünyada zamanı Tanrı*

yaşar, İnsan oğlu hep ölmek için türemiştir”. Bu satrlar qadimgi turkiy dunyoqarashning asosiy qoidalaridan biri – Tangri abadiyligi va inson hayotining foniyligi g‘oyasini ifodalaydi. O‘rxun bitiktoshlarida ham shunga o‘xshash qarashlar uchraydi: insonning hayoti vaqtincha, ammo davlat va tangri qudrati abadiy.

Adabiy jihatdan she’rda:

- Parallelizm va takror – “Ötügen / O‘g‘uz” oppozitsiyasi xalq va davlat birligini ifodalaydi.
- Arxaik terminologiya – “Ötügen”, “Öd tengri”, “Acun” kabi qadimgi turkiy so‘zlar tarixiy uslub yaratadi.
- Kosmogonik falsafa – Tangrining abadiyligi va insonning o‘tkinchiligi turkiy epik merosning asosiy motivlaridan biridir.

Shu tariqa Yusuf Tunaning she’ri Bilga Xoqon obrazini nafaqat tarixiy shaxs, balki turkiy dunyoqarashning timsoli sifatida talqin qiladi. Bu asar orqali zamonaviy o‘quvchi qadimgi turkiy bitiktoshlarning ruhini his qilishi, o‘zini tarixiy–milliy xotira bilan bog‘lash imkoniga ega bo‘ladi. Shoir 1961-yilda Mug‘la viloyatining Fathiya tumaniga qarashli Yaniklar qishlog‘ida tug‘ilgan. Keyinchalik Kargi qishlog‘iga ko‘chib o‘tib, ilk ta’limni ham shu yerda olgan: boshlang‘ich maktabni Kargida, o‘rta maktabni Fethiya o‘rta maktabida, litseyni esa Fethiya litseyida tamomlagan. 1983-yilda Kastamonu Ta’lim Yuksak maktabini bitirib, 1984-yildan boshlab o‘qituvchilik faoliyatini boshlagan. O‘ttiz yillik samarali mehnatdan so‘ng nafaqaga chiqqan. Hozirda Mug‘la viloyati Fethiya tumanining Kargi mahallasida istiqomat qilmoqda. Adabiyotga bo‘lgan mehrini davom ettirib, muntazam ravishda she’rlar yozadi. Uning ijodida vatan va millat sevgisi, diniy-milliy qadriyatlarga sadoqat, insonparvarlik, tabiat manzaralariga mehr va Yaratganga muhabbat markaziy mavzulardan o‘rin olgan [https://www.antoloji.com/yusuf–tuna/hayati/].

Bilga Xoqon siymosi qadimiy turkiy yozma yodgorliklarda tarixiy shaxs sifatida tasvirlangan bo‘lsa-da, bugungi kunda ham u turli mamlakatlarda yaratilayotgan zamonaviy badiiy asarlarning ilhom manbayi bo‘lib qolmoqda. O‘zbek, turk va boshqa xalqlarning yozuvchilari hamda olimlari uning hayoti, siyosiy faoliyati va ma’naviy merosini o‘z asarlarida qayta talqin qilmoqdalar.

Osman Oktay – *Bilge Kağan* (Bilga Xoqon) (grafik roman, Turkiya)

Turkiyalik muallif Osman Oktay tomonidan yaratilgan grafik

romanlarda O‘rxun bitiklari asosida Bilga Xoqon obrazi jonli va vizual shaklda qayta tiklanadi. Bu asarlar yoshlarga mo‘ljallangan bo‘lib, tarixiy voqealarni sodda va qiziqarli uslubda yetkazishga xizmat qiladi. Grafik romanlarda epik syujet, qadimiy turkiy mifologiya va tarixiy tafsilotlar uyg‘unlashgan [Isajon Sulton. “*Bilga Xoqon”*, 2022].

Gungo‘r Karaug‘uz – *Ötüken’de Elli Beş Gün: Bilge Kağan Hazinesinin Keşif Hikayesi – “O‘tukanda ellik besh kun: Bilga Xoqon xazinasining kashf etilish hikoyasi”* (Turkiya)

Mazkur asar tarixiy–fantastik va arxeologik unsurlarni o‘zida jamlagan sarguzasht hikoya bo‘lib, Bilga Xoqon davri bilan bog‘liq ramziy “xazina”ni izlash voqealari tasvirlanadi. Asarda qadimiy turkiy meros va zamonaviy izlanishlar o‘zaro bog‘langan bo‘lib, o‘quvchiga tarixiy siymolarning bugungi kundagi ahamiyatini eslatadi [Oktay, Osman. *Bilge Kag‘an,1990*].

Zamonaviy ilmiy–publitsistik tadqiqotlar

Bilge Xoqon obraziga zamonaviy ilmiy yondashuvlar ham ko‘plab maqolalarda aks etgan. Xususan, o‘zbek adabiyotida Isajon Sultonning *Bilga Xoqon* romanini postkolonial nuqtai nazardan tahlil etuvchi maqolalar, shuningdek, turk va qozog‘istonlik olimlarning O‘rxun bitiklarini qayta tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlari mavjud. Ushbu ilmiy manbalar badiiy asarlarning tarixiy asoslarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xulosa

Bilga Xoqon obrazi nafaqat qadimgi bitiklarda, balki zamonaviy adabiyot va san’at asarlarida ham keng o‘rin olmoqda. Turli mamlakatlarda yaratilgan roman, grafik roman, hikoya, she’r va ilmiy maqolalar orqali uning siymosi qayta kashf etilmoqda. Bu esa Bilga Xoqonning tarixiy va ma’naviy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmaganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

Bilga Xoqon (roman). 2023. // UzPedia elektron ensiklopediyasi. – URL: https://uzpedia.uz/pedia/bilga_xoqon_roman

Bilga Xoqon. 2023. // Mutolaa.com elektron kutubxonasi. – URL: https://mutolaa.com/uz/book/bilga–xoqon

Tuna, Yusuf. 2014. *Türk Bilge Kağan diyor ki*. Antoloji.com,

URL: https://www.antoloji.com/turk–bilge–kagan–diyor–ki–siiri/
Isajon Sulton. 2022. *Bilga Xoqon*. Toshkent: Factor Books.
Oktay, Osman. *Bilge Kağan* (grafik roman seriyasi). Istanbul: Turkuvaz Kitap, 1990-yillar va keyingi nashrlar.
Karauğuz, Güngör. 2000. *Ötüken'de Elli Beş Gün: Bilge Kağan Hazinesinin Keşif Hikayesi*. Istanbul: Kaynak Yayınları,
To'xtasinova, D. 2023. "Isajon Sultonning *Bilga Xoqon* romanida tarixiy obraz talqini." *O'zbek tili va adabiyoti*, – №3.
Aydarbek, M. 2021. "Orhon–Yenisey bitiktoshlari va turkiy davlatchilik." *Eurasian Studies Journal*, – №12.
https://www.antoloji.com/yusuf–tuna/hayati/
https://www.goodreads.com/book/show/178174014–bilge–kaan–––g–k–kmedik–e–yer–yar–lmad–k–a

THE EXPRESSION OF THE IMAGE OF BILGA KHOKAN IN MODERN PROSE AND VERSE

Mahkamova Dilafruz [1]

Abstract

The article focuses on how the image of Bilga Khoqan was interpreted in the historical memory and literary thought of the Turkic peoples. In particular, the process of reviving the image of a historical figure expressed in ancient inscriptions in modern prose and poetry is analyzed. The artistic interpretation of the historical hero is highlighted on the example of Isajon Sultan's novel "Bilga Khoqan" and images found in modern poetry in Uzbek literature. Through this, the spiritual and ideological connection between the past and the present is revealed.

Key words: Bilga Khoqan, Kultegin, Tonyukuk, Turkish inscriptions, Isajon Sultan, modern Uzbek literature, historical image, prose, poetry, artistic interpretation.

References

[1] *Mahkamova Dilafruz* - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilafruz-mahkamova@mail.ru
https://orcid.org/0009-0001-7750-9476
For citation: *Mahkamova D. Sh.* 2025. "*The Expression of the Image of Bilga Khokan in Modern Prose and Verse*". Uzbekistan: Language and Culture. Folklore. Dialectology 2. 198-206. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/DSDH8392

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com